

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No 1
maxsus son

2026
YANVAR



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINIG
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 12 sahifa,
yanvar, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA MOLIYAVIY VOSITACHILARNING AHAMIYATI.....	8
Sattorova Mehriniso Komil qizi, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	



QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA MOLIYAVIY VOSITACHILARNING AHAMIYATI

Sattorova Mehriniso Komil qizi

Fan va texnologiyalar universiteti 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li

Fan va texnologiyalar universiteti

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar"

kafedra o'qituvchisi

elldor96@gmail.com

ORCID: 0009-0000-9661-9884

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada qimmatli qog'ozlar bozorining zamonaviy infratuzilmasida moliyaviy vositachilarning tutgan o'rnini har tomonlama tahlil qilinadi. 2019–2023-yillarda global bozorlardagi kapitalizatsiya va moliyaviy vositachilar savdo hajmi asosida statistik tahlil olib boriladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy vositachilar; broker; diler; kliring; depozitariy; bozor likvidligi; kapitalizatsiya; qimmatli qog'ozlar bozori; investitsiya.

Abstract. This scientific article comprehensively analyzes the role of financial intermediaries in the modern infrastructure of the securities market. A statistical analysis is conducted based on the capitalization and trading volume of financial intermediaries in global markets in 2019–2023.

Keywords: financial intermediaries; broker; dealer; clearing; depository; market liquidity; capitalization; securities market; investment.

Аннотация. В данной научной статье всесторонне анализируется роль финансовых посредников в современной инфраструктуре рынка ценных бумаг. Проводится статистический анализ на основе капитализации и объема торгов финансовых посредников на мировых рынках в 2019–2023 годах.

Ключевые слова: финансовые посредники; брокер; дилер; клиринг; депозитарий; рыночная ликвидность; капитализация; рынок ценных бумаг; инвестиции.

KIRISH

Qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotning eng muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi kapitalni qayta taqsimlash, investitsion faollikni oshirish va korxonalar uchun moliyaviy resurslarni jalb qilishdan iboratdir [4]. Biroq ushbu bozorlar o'z-o'zidan ishlamaydi — ularning samaradorligi moliyaviy vositachilarning sifatiga va infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

Moliyaviy vositachilar (brokerlar, dilerlar, market-meykerlar, kliring markazlari, depozitariylar, investitsiya banklari) investorlarga xizmat ko'rsatish, savdo jarayonlarini tashkil qilish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va bozor xavfsizligini ta'minlash kabi fundamental funksiyalarni bajaradi [5]. OECDning 2023-yildagi hisobotiga ko'ra, rivojlangan kapital bozorlarining 75% likvidligi aynan professional vositachilar faoliyati bilan bog'liq [1].

Bozor ishtirokchilari sonining ortishi, elektron savdo tizimlarining kengayishi, axborot oqimining tezlashishi moliyaviy vositachilarning rolini yanada oshirmoqda. Shuningdek, algoritmik savdo, blockchain texnologiyalari, raqamli brokerlik platformalarining ommalashuvi bozor infratuzilmasining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatadi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mishkin va Eakins (2021) moliyaviy vositachilarni iqtisodiy tizimning "asosiy uzatuvchi mexanizmi" deb ta'riflaydi va ularning asosiy vazifalari — likvidlik yaratish, risklarni diversifikatsiya qilish, narx signallarini shakllantirish — bozor samaradorligi uchun zarurligini ta'kidlaydi [4]. Ularning nazariy modeliga ko'ra, vositachilarsiz bozorlar fragmentatsiyaga uchraydi, tranzaksion xarajatlar ortadi va kapital oqimi sekinlashadi.



Ushbu nazariy yondashuv Saunders va Cornett (2019) tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'lib, ular vositachilarning risklarni boshqarishdagi roli va kredit kanali orqali iqtisodiy o'sishga ta'sirini chuqur tahlil qilgan [5]. Ular vositachilarning mavjudligi investorlarning qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiruvchi asosiy omil ekanini qayd etadi.

OECD (2023) yilgi Capital Market Review hisobotida bozor likvidligi va moliyaviy vositachilar faolligi o'rtasidagi kuchli korrelyatsiya isbotlangan [1]. Hisobotga ko'ra:

- professional vositachilar soni ortgan bozorlarda bid-ask spread 14–22 baravar past,
- narxlar fundamental ma'lumotlarga tezroq moslashadi,
- likvidlik past bo'lgan bozorlarda esa volatillik keskin yuqori bo'ladi.

Bu natijalar bozor samaradorligining asosiy elementi — uzluksiz savdo oqimi — aynan vositachilar faoliyati bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

IMF (2022) Global Financial Stability Reportda kliring va hisob-kitob infratuzilmasining moliyaviy inqirozlar davridagi barqarorlikka ta'siri alohida tahlil qilinadi [2]. Hisobot mualliflari ta'kidlaydiki:

- kliring tizimi mavjud bo'lmagan davlatlarda 2008 va 2020 yil inqirozlarida yo'qotishlar 3–5 baravar ko'proq bo'lgan;
- markazlashtirilgan depozitariy reyestrlari investorlarga bo'lgan ishonchni sezilarli oshiradi;
- hisob-kitob siklining qisqarishi ($T+2 \rightarrow T+1$) rivojlangan bozorlarning muhim tendensiyasidir.

Allen va Gale (2007) depozitariy tizimining ishonchlilik samaradorligini “moliyaviy tizimning immuniteti” sifatida ta'riflaydi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik, analitik, empirik va taqqoslama metodlar qo'llanildi. Global kapital bozoriga oid ma'lumotlar OECD [1], IMF [2] va WFE [3] hisobotlaridan olindi. Moliyaviy bozorlar nazariyasi bo'yicha asosiy ilmiy manbalar — Mishkin va Eakins [4], Saunders va Cornett [5] ishlari metodologik asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston bozoriga oid ma'lumotlar Kapital Bozorini Rivojlantirish Agentligining yillik hisobotlaridan olindi [7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyidagi jadval global bozor rivojini aks ettiradi (1-jadval).

1-jadval. Global bozor ko'rsatkichlari (2019–2023)

Yil	Bozor kapitalizatsiyasi (mlrd USD)	Vositachilar savdo hajmi (mlrd USD)
2019	45	12
2020	50	15
2021	62	20
2022	71	24
2023	80	28

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki kapitalizatsiya 5 yilda 77% ga o'sgan, vositachilar savdo hajmi esa 133% ga ortgan. Bu ko'rsatkichlar bozorning barqaror va jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi.


Moliyaviy bozorlarning asosiy muammolaridan biri — axborot assimetrikasi. Brokerlik kompaniyalari investorlarga bozor sharhlari, risk tahlillari, emitentlar bo'yicha ma'lumotlar taqdim etish orqali ushbu muammoni kamaytiradi. Empirik tadqiqotlarga ko'ra, professional vositachilarga ega bo'lgan bozorlarda investor xatosi 40% gacha kamayadi [5].

O'zbekiston kapital bozori ko'rsatkichlari (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston kapital bozori (2020–2023)

Yil	Emitentlar soni	Brokerlar soni	Savdo hajmi (mlrd so'm)
2020	108	48	2.1
2021	125	52	3.4
2022	140	58	6.8
2023	162	61	9.5

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki O'zbekiston kapital bozorida vositachilik infratuzilmasi so'nggi 3 yilda sezilarli rivojlandi. Brokerlar sonining ortishi va savdo hajmining 4 baravar oshishi bozor ishtirokchilari faolligining oshayotganini ko'rsatadi [7]. Bu esa investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratmoqda (1-rasm).



1-rasm. Global bozor kapitalizatsiyasi (2019–2023)

Diagrammada 2019–2023-yillar davomida global qimmatli qog'ozlar bozorining umumiy kapitalizatsiyasi dinamikasi tasvirlangan. Grafikdagi chiziq aniq ko'rsatadiki, ushbu besh yillik davrda bozor kapitalizatsiyasi 2019-yildagi 45 mlrd USD dan 2023-yilda 80 mlrd USD gacha, ya'ni 77% ga oshgan.

Kapitalizatsiya har yili muntazam ortib borgan, bu esa bozorning tizimli va makroiqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, bunday izchil o'sish odatda likvid bozorlar va kuchli vositachilik infratuzilmasiga ega mamlakatlarda kuzatiladi [1].

2021–2023-yillar eng tez o'sish davri hisoblanadi. Bu yillarda chiziqning o'sish qiyaligi keskinlashadi. Bu davr pandemiyadan keyingi global investitsiya oqimi tiklangan davr bo'lib, investitsiya fondlari, brokerlik platformalari va elektron savdo tizimlariga qiziqish ortgani bilan izohlanadi. Diagramma bozor infratuzilmasi rivojlanishi, investorlar ishonchi va global moliya oqimlarining tiklanishi natijasida kapitalizatsiyaning barqaror o'sayotganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot moliyaviy vositachilarsiz kapital bozorlari samarali faoliyat yuritilmasligini ko'rsatdi. Ular bozor likvidligi, xavfsizligi, narxlar barqarorligi, investitsion oqimlar va iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biridir. Kelajakda raqamlashtirish va global standartlarga moslashish ushbu tizimni yanada kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD (2023). Capital Market Review.
2. IMF (2022). Global Financial Stability Report.
3. WFE (2023). Statistical Annual Guide.
4. Mishkin, F. & Eakins, S. (2021). Financial Markets and Institutions.
5. Saunders, A. & Cornett, M. (2019). Financial Institutions Management.
6. Allen, F. & Gale, D. (2007). Understanding Financial Crises.
7. Uzbekistan Capital Market Development Agency (2022). Annual Review.
8. Levine, R. (2005). Finance and Growth.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

1-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100